

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 1906,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 11,8 ming kishiga yoki 0,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 704,9 ming kishini (jami aholi sonida qag'i ulushi 37,0 %), qishloq aholisi soni 1201,7 ming kishini (63,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **11,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **17,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6,3 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyati aholisining umumiyo'sishi (2019 yil yanvar-iyun oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi
(2018-2019 yillar 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ti, %
Buxoro viloyati	1876,4	1906,6	101,6
Buxoro sh.	276,4	279,2	101,0
Kogon sh.	60,4	60,9	100,8
tumanlar:			
Olot	96,4	98,2	101,9
Buxoro	161,6	164,3	101,7
Vobkent	135,4	137,9	101,8
G'ijduvon	296,0	300,8	101,6
Kogon	75,3	76,9	102,1
Qorako'l	159,5	162,3	101,8
Qorovolbozor	18,0	18,2	101,1
Peshko'	118,7	121,0	101,9
Romitan	137,2	139,5	101,7
Jondor	168,8	172,1	102,0
Shofirkon	172,7	175,3	101,5


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 300,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 %ni) va Buxoro shahrida 279,2 ming kishini(14,6 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 60,9 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tumanida 18,2 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,1%ni, Jondor tumanlarda 2,0 %ni, Olot va Peshko' tumanlarida 1,9% ni, Qorako'l va Vobkent tumanlaridada 1,8%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Kogon shahrida 0,8% ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Buxoro viloyati	954,2	952,4
Buxoro sh.	138,7	140,5
Kogon sh.	29,6	31,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	49,2	49,0
Buxoro	82,5	81,8
Vobkent	69,3	68,6
G'ijduvon	153,4	147,4
Kogon	38,0	38,9
Qorako'l	80,1	82,2
Qorovulbozor	9,0	9,2
Peshku	60,5	60,5
Romitan	70,6	68,9
Jondor	84,9	87,2
Shofirkon	88,4	86,9

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 iyul holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 17,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko`paygan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 17,5 promille bo`lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Kogon shahrida (15,4 promilledan 18,3 promillega), Vobkent tumanida (16,8 promilledan 18,8 promillega) va Buxoro shaxrida (15,6 promilledan 17,0 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Jondor tumanida (16,1 promilledan 15,5 promillega) va Qorako'l tumanida (20,1 promilledan 20,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
8,2
ming nafar

O'g'il bolalar:
8,9
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



**Buxoro viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi
(yanvar-iyun)**

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur`ati %da
Buxoro viloyati	16 303	17106	104,9
Buxoro sh.	2 134	2344	109,8
Kogon sh.	460	553	120,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	921	987	107,2
Buxoro	1 295	1324	102,2
Vobkent	1 125	1283	114,0
G'ijduvon	2 823	2963	105,0
Kogon	758	769	101,5
Qorako'l	1 584	1606	101,4
Qorovulbozor	163	164	100,6
Peshku	1 015	1038	102,3
Romitan	1 159	1170	100,9
Jondor	1 347	1323	98,2
Shofirkon	1 519	1582	104,1

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 3,8 mingta o`lim qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o`lim koeffitsiyenti 4,0 promille ni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 4,1 promille bo`lgan).


O`lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Qorovulbozor (3,8 promilledan 2,0 promillega), Kogon shahrida (5,2 promilledan 4,6 promillega), Buxoro shahrida (4,9 promilledan 4,4 promillega), Vobkent (4,4 promilledan 4,0 promillega), Romitan (3,8 promilledan 3,0 promillega), G`ijduvon (4,3 promilledan 4,0 promillega) tumanlarida kuza tilgan bo`lib aksincha Shjfirkon (4,0 promilledan 4,5 promillega) va Kogon (4,3 promilledan 4,6 promillega) o`sish holati kuzatildi

Vafot etganlar



Erkaklar: 2,2 ming kishi **Ayollar:** 1, ming kishi

Hududlar kesimida o`lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



Demografik holat

Buxoro viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-iyun)


	2018 y.	2019 y.	O`sish sur`ati %da
Buxoro viloyati	3 860	3812	98,8
Buxoro sh.	668	602	90,1
Kogon sh.	156	138	88,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	199	205	103,0
Buxoro	292	309	105,8
Vobkent	294	272	92,5
G'ijduvon	638	599	93,9
Kogon	161	175	108,7
Qorako'l	304	337	110,9
Qorovulbozor	34	18	52,9
Peshku	209	214	102,4
Romitan	254	234	92,1
Jondor	314	323	102,9
Shofirkon	337	386	114,5

Demografik holat

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,9 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,2 %i o'simtalardan, 5,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 121 nafarni tashkil etib, ularning 53,7 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 4,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 20,7 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,6 %i yuqumli parazitar kasalliklardan va 12,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 13,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 0,9 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 12,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
13,3 ming kishi

Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (123,1 %), Buxoro shahri (112,5%), Shofirkon (107,4 %), G'ijduvon (106,9 %) va Kogon shahri (103,7%) tumanlarda to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Romitan (146,8 %), Qorako'l (138,6 %) umanlariga va Buxoro (114,6 %) shahriga t to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	6 031	6283	104,2	888	926	104,3
Buxoro sh.	889	1000	112,5	253	290	114,6
Kogon sh. tumanlar:	189	196	103,7	41	46	112,2
Olot	342	325	95,0	38	34	89,5
Buxoro	441	543	123,1	69	71	102,9
Vobkent	421	432	102,6	47	43	91,5
G'ijduvon	888	949	106,9	135	113	83,7
Kogon	271	256	94,5	46	42	91,3
Qorako'l	599	582	97,2	44	61	138,6
Qorovulbozor	44	55	125,0	8	7	87,5
Peshku	416	385	92,5	35	34	97,1
Romitan	425	467	109,9	47	69	146,8
Jondor	590	539	91,4	73	60	82,2
Shofirkon	516	554	107,4	52	56	107,7

Migratsiya. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,5 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,1 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	3,1	2,7
Ko'chib ketganlar	4,2	4,2
Migratsiya saldosi	-1,1	-1,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 0,5 ming kishi), G`ijduvon tumanida (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.

